
RASMIY MUNOSABAT

Ijtimoiy tarmoqlarda "Mash'al" mahalla fuqarolar yig'ini Alisher Navoiy ko'chasida joylashgan 38-uydagi muammolar bo'yicha murojaat tarqaldi. Mazkur murojaat Farg'ona shahar hokimligi Ishchi guruhi tomonidan o'rganildi.

O'rganish jarayonida mazkur ko'p qavatli uyning bitta lifti o'rnatilmagani, qurilish ishlari uchun o'rnatilgan transformatorga himoya hududi qilinmagani aniqlandi. Shuningdek qurilish ombori bo'yicha ham fuqarolar fikri eshitildi. Hududdagi avtoturargohga yengil tipda qurilgan savdo do'konining o'rnatilgani ham fuqarolar e'tiroziga sabab bo'lmoqda.

Aniqlangan muammolar bo'yicha Ishchi guruhi a'zolari tomonidan hujjatlarni yig'ish va o'rganish ishlari davom etmoqda. O'rganish yakuni bo'yicha batafsil ma'lumot beriladi.

2023-09-14 06:22:15